

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2024-3/2

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2024

Бош муҳаррир:*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.***Бош муҳаррир ўринбосари:***Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.***Тахрир ҳайати:**

<i>Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.</i>	<i>Раззақова Сурайё Раззоқовна, к.ф.ф.д., доц.</i>
<i>Абдуллаева Муборак Махмусовна, б.ф.д., проф.</i>	<i>Раматов Бакмат Зарипович, қ/х.ф.н., доц.</i>
<i>Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.</i>	<i>Рахимов Рахим Атажанович, т.ф.д., проф.</i>
<i>Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.</i>	<i>Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д., проф.</i>
<i>Аимбетов Нағмет Каллиевич, и.ф.д., акад.</i>	<i>Рахимова Ғўзал Юлдашовна, ф.ф.ф.д., доц.</i>
<i>Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.</i>	<i>Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.</i>
<i>Бабаджанов Хушнуд, ф.ф.н., проф.</i>	<i>Рўзметов Дилшод Рўзимбоевич, г.ф.н., к.и.х.</i>
<i>Бобожанова Сайёра Хушнудовна, б.ф.н., доц.</i>	<i>Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.</i>
<i>Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.</i>	<i>Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.</i>
<i>Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.</i>	<i>Сапарбаева Гуландам Машиариповна, ф.ф.ф.д.</i>
<i>Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.</i>	<i>Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц.</i>
<i>Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.</i>	<i>Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.</i>
<i>Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.</i>	<i>Собитов Ўлмасбой Тожахмедович, б.ф.ф.д., к.и.х.</i>
<i>Исмаилов Исҳақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Сотипов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.</i>
<i>Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., акад.</i>
<i>Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.</i>	<i>Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.</i>	<i>Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.</i>
<i>Қаландаров Назимхон Назирович, б.ф.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.</i>
<i>Каримов Улугбек Темирбаевич, DSc</i>	<i>Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.</i>
<i>Курбанбаев Илҳом Жуманазарович, б.ф.д., проф.</i>	<i>Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.</i>
<i>Курбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.</i>	<i>Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.</i>
<i>Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.</i>	<i>Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.</i>
<i>Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.</i>	<i>Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.</i>
<i>Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.</i>
<i>Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.</i>	<i>Худайберганаева Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.</i>
<i>Мирзаева Гулнора Саидарифовна, б.ф.д.</i>	<i>Худойберганаев Ойбек Икромович, PhD, к.и.х.</i>
<i>Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.</i>	

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№3/2 (112), Хоразм Маъмун академияси, 2024 й. – 160 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

МУНДАРИЖА
ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Abdullayev M.G. . Innovatsion iqtisodiyot sharoitida personalni boshqarishga nazariy yondashuvlar	5
Azibaev A.G. . Economic growth: a comprehensive analysis of its significance and determinants	8
Azimov B.F., Raximova D.D. . Universitetlarning global reytinglari va baholash metodologiyasi: ARWU, QS, THE	14
Azimov S.B. . Moliyaviy savodxonlikni oshirish strategiyalari	20
Aziztayeva F.A. . Turizm xizmatlari samaradorligini oshirish	23
Bakhranova R.B. . The role of the financial strategy of the enterprise in the maintenance of economic stability	25
Boboqulov S.B. . Aholiga ko'rsatiladigan kommunal xizmatlarni raqamlashtirish yo'llari	28
Butanova D.R. . Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda mintaqa qishloq xo'jaligi subyektlarining roli	31
Eshniyasova Yu.Yu. . Soliq islohotlari — iqtisodiyotni rivojlantirish hamda investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish omili sifatida	35
Farxodova Sh.D. . Ba'zi rivojlangan mamlakatlarda savdo siyosati va uning o'ziga xos xususiyatlari	37
Mamarasulov F.U. . The importance of human capital reproduction	40
Matniyozov M. . Current issues on the formation of the destination image of Ichan Kala, Khorezm	42
Murodov A.M. . Oliy ta'lim muassasalari innovatsion rivojlanish omillari	48
Nabixanova F.S. . Xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirish bo'yicha boshqaruvga oid xorijiy tadqiqotlar sharhi	51
Nurmuxamidova M.X., Matqurbanova A.D. . Innovatsion salohiyatdan foydalanish darajasini baholash uslubiyati va uning O'zbekistonda qo'llanilishi	53
Primova A.A. . Xizmat ko'rsatish korxonalarida reinjiningdan foydalanish usullari	56
Sagatov M.V., Sarimsakov X.U. . Training of information systems managers at the phase of digital economy development	60
Sattarova M.D. . Mintaqada qulay investitsion muhitni yaratish zaruriyati va mohiyati	64
Serjanov A.M. . Xizmatlar sohasida bank xizmatlari infratuzilmasi shakllanishining ilmiy nazariy asoslari	68
Shukurov I.S. . Fermer xo'jaliklari taraqqiyotida agroxizmatlarni rivojlantirishning muhim xususiyatlari	73
Toshboyev B.B. . O'zbekistonning yashil energiya salohiyatini oshirish yo'nalishlari	77
Umarov A.N. . Tijorat banklarining onlayn platformalari misolida marketing tadqiqotlarining amalga oshirilishi	83
Umurova M.A. . Xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy samaradorlik boshqaruvini takomillashtirish mexanizmlari	86
Xalmuratov K.P. . Yo'lovchi tashish tizimlarining xorijiy tajriybalari	90
Yuldashev G.T. . Dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirishning iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi	93
Axrorov F.B. . Ишлаб чиқаришни экологиялаштириш қишлоқ хўжалигидаги экологик-иқтисодий тизимларни барқарор ривожлантириш омили сифатида	97
Давлетов Ж.М. . Минтақада пахта-гўқимачилик кластерлари самарадорлигини ошириш омиллари	103

Xulosa. Ta'kidlash joizki, agroxizmatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish bu tizimning fermer xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish va rivojlantirishdagi o'rni va mohiyatini yanada aniqlashtirishga yordam beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib respublika agrar sohasida agroxizmatlarning o'ziga xos xususiyatlar quyidagi yangi imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

- birinchidan, respublikada agroxizmatini ko'rsatish tizimida raqobat muhiti yaratiladi, natijada xizmatlar sifati yaxshilanib, bahosi arzonlashadi;

- ikkinchidan, agrar sohada fermer xo'jaligi barqaror rivojlanadi;

- uchinchidan, agroxizmatni shakllantirish va rivojlantirish asosida qishloq aholisini ish bilan ta'minlash va daromadlarini oshirish bo'yicha qo'shimcha manbalari yuzaga keladi;

- to'rtinchidan, qishloq xo'jaligiga, jumladan fermer xo'jaliklarini xorijiy investitsiyalar, yangi texnika va texnologiyalar kiritish imkoni yaratiladi. Bu esa o'z navbatida agrar sohada ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini oshirish va tarmoqni barqaror rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

- beshinchidan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat ko'rsatuvchilar soni ortadi va ulardagi xizmatlar sifati yaxshilanadi.

Darhaqiqat, Respublikamizdagi fermer xo'jaliklari taraqqiyotida o'ziga xos muhim xususiyatga ega bo'lgan agroxizmatlarni rivojlantirish qishloq xo'jaligini jadal rivojlantirishda yangi iqtisodiy imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063> Murojaat sanasi: 11.12.2023 y.

2. Ожегов С.И. Словарь русского языка/ под ред. Н.Ю. Шведовой. – М.:1990. – с. 917.

3. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. М.: Эксмо, 2011. – с. 104.

4. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В 2 т: Пер. с англ. 11 изд. Т. 2. – М.: 1992.

5. Котлер Ф. Маркетинг-менеджмент // Экспресс-курс. 2-е изд. / Перевод с англ. Под ред. Божук С.Г. Спб.: Питер. 2005. С-301.

6. Ланге О. и др. Теория статистики. – М.: Статистика, 1970.

7. Pardayev M.Q, Ochilov I.S. Bozor munosabatlari sharoitida xizmatlarning turlari va ularning tasnifi. //Xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohaslarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. Monografiya. "Iqtisod moliya", 2008. 37 b.

8. Muxammedov M.M. "Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish — ustuvor masala // – "SERVIS". Ilimiy-ommabop jurnal. 2021 yil, 1–son. 53 b.

9. Курбонов Ж.М. Хизмат, хизмат кўрсатиш, сервис. //“SERVIS” Илмий-оммабоп журнал. 2009 йил, 1–сон. 58 б.

10. Mirzayev Q.J. "Agroservis xizmatlari samaradorligini oshirishning metodologik asoslari" Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2012 y. 49 bet

11. <https://president.uz/uz/lists/view/5622>. Murojaat sanasi: 11.12.2023 y.

UO'K 620.9:330

O'ZBEKISTONNING YASHIL ENERGIYA SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI

B.B.Toshboyev, PhD, Guliston davlat universiteti, Guliston

Annotatsiya. Ushbu maqolada energetika sohasidagi muammolar, yoritib berilgan. Hozirgi kunda dunyodagi energetika tarmoqlaridagi texnologiyalar ularning yutuqlari va kamchiliklari, xalqaro tashkilotlar tadqiqotlari asosida yoritilgan. O'zbekistonda yashil energetika manbalarini rivojlantirish uchun taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: quyosh energiyasi, shamol energiyasi, energetika subsidiyalari, energetika investitsiyalari.

Аннотация. В данной статье описаны проблемы в области энергетики. В настоящее время технологии в мировой энергетике выделены на основе их достижений и недостатков, исследований международных организаций. Даны предложения и рекомендации по развитию зеленых источников энергии в Узбекистане.

Ключевые слова: солнечная энергетика, ветроэнергетика, энергетические субсидии, инвестиции в энергетику.

Abstract. This article describes the problems in the field of energy. Currently, technologies in the world's energy sectors are highlighted based on their achievements and shortcomings, researches of international organizations. Proposals and recommendations for the development of green energy sources in Uzbekistan are given.

Key words: solar energy, wind energy, energy subsidies, energy investments.

Kirish. Dunyo davlatlarida iqlim o'zgarishlarini salbiy oqibatlari chuqurlashib borar ekan, jahon hamjamiyati bu muammoning oqibatlari bilan emas balki sabablari bilan kurashish eng to'g'ri yo'l ekanligini anglab yetmoqda.

Qayta tiklanadigan energiya — bu tabiiy manbalardan olinadigan energiya, ular iste'mol qilinganidan ko'ra tezroq tiklanadi. Quyosh nurlari va shamol, masalan, doimiy ravishda to'ldirilib boriladigan shunday manbalardir. Qayta tiklanadigan energiya manbalari yetarli darajada hisoblanadi.

Qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish qazib olinadigan yoqilg'ilarni yoqishdan olinadigan energiyaga qiyoslaganda tabiatga deyarli zarar yetkazmaydi. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda chiqindilarning asosiy ulushini tashkil etuvchi qazib olinadigan yoqilg'idan qayta tiklanadigan energiyaga o'tish iqlim inqirozini hal qilishning kalitidir.

Qayta tiklanadigan energiya hozirda aksariyat mamlakatlarda arzonroq va qazib olinadigan yoqilg'iga qaraganda uch baravar ko'p ish o'rinlarini yaratadi.[0]

So'nggi o'n yillikda quyosh panellarini ishlab chiqarish narxi keskin tushish tendensiyasini ko'rsatmoqda, bu ularni nafaqat arzon, balki ko'pincha elektr energiyasining eng arzon shakliga aylantirdi. Quyosh panellari taxminan 30 yil xizmat qiladi va ishlab chiqarishda ishlatiladigan material turiga qarab turlicha bo'ladi.

Shamol energiyasi esa, quruqlikda yoki dengizda joylashgan yirik shamol turbinalari yordamida harakatlanuvchi havoning kinetik energiyasidan vujudga keladi. Shamol energiyasi ming yillar davomida ishlatilgan, ammo so'nggi bir necha yil ichida quruqlikdagi va dengizdagi shamol energiyasi texnologiyalari ishlab chiqarilgan elektr energiyasini maksimal darajada oshirish uchun rivojlandi — balandroq turbinalar va katta diametrli rotorlar bilan jihozlanmoqda. 2023-yilda energiyaga global miqyosda 2,8 trillion dollar sarmoya kiritilishi rejalashtirilgan bo'lib, shundan 1,7 trillion dollar (61%) dan ortig'i toza texnologiyalarga, jumladan qayta tiklanadigan manbalar, elektr transport vositalari, atom energetikasi, tarmoqlar, saqlash, kam emissiyali yoqilg'ilar, samaradorlikni oshirishga yo'naltirilishi kutilmoqda, qolgan 1 trillion dollardan sal ko'proq qismi ko'mir, gaz va neft asosida energiya ishlab chiqaruvchi sohalarga ajratilmoqda [0].

Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati Umuman "Yashil" iqtisodiyotga o'tish masalasining zarurligi global miqyosda 2012-yil Meksikaning Los-Kabosda shahrida "Katta yigirmatalik" (G20) sammitida ko'tarilib, keyinchalik bir qator mamlakatlarning taraqqiyot strategiyalarida aks eta boshladi. O'zbekistonda 2022-yil 2-dekabrda Prezidentning PQ-436 "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori [0]. 16-fevral 2023-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57-son qarorlari [0] qabul qilindi, bu qarorlar ijrosini ta'minlash uchun amaliy ishlar olib borilmoqda.

Mashhur ingliz iqtisodchi olimi Artur Pigu "Sanoat tebranishlari" (Industrial Fluctuations, 1929) asarida tashqi ta'sirlarni neytrallashtirish nazariyasini asoslab uglevodorod chiqindilariga to'g'ridan-to'g'ri soliq belgilashning ahamiyatini tushuntirib bergan. Biroq ta'sirlarni implementatsiya qilish o'lchashning ratsionalligini idrok qilish hozirgacha qarama-qarshi munozaralarni keltirib chiqarmoqda [0]. Tabiat insoniyat oldindan shunday muammolarni ko'ndalang qo'ymoqdaki, insoniyat yashab qolishi uchun ekologik muammolarni tezroq bartaraf etishi, insoniyat oldidagi asosiy vazifaga aylanib ulgurdi.

Olingan natijalar tahlili. Mutaxassislarning fikricha, Mamlakatimizda bir yilda 300-320 kun atrofida quyoshli kun bo'lganligi sababli, bu sohaning imkoniyatlari ulkan. O'zbekiston Respublikasida 2017-yildan so'ng olib borilayotgan pragmatik siyosat natijasida iqtisodiyot o'sib, aholining turmush darajasi oshmoqda bu esa elektr energiyasiga bo'lgan talabning muttasil oshib borishi kuzatilmogda.

Mamlakatimiz 2030-yilgacha 25 gigavatt quvvatdagi qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yaratishni va energiya balansida uning ulishini 40 foizga yetkazishni maqsad qilgan. 2023-yilda 2 gigavatt quvvatdagi yirik shamol va quyosh elektr stansiyalarini ishga tushirmogda. Shuningdek "yashil vodorod" ishlab chiqarish sohasida ham ilk qadamlar qo'yilmogda. [0]


Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatish, iste'molchilarni muqobil energiyaga o'tkazish va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy qilish orqali 2023-yilda qo'shimcha 5 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish va 4.8 milliard metr kub tabiiy gazni iqtisod qilish, ushbu maqsadlarga jami 15.4 milliard AQSH dollari miqdoridagi mablag'larni yo'naltirish, shu jumladan 13.4 milliard AQSH dollari – davlat-sheriklik loyihalari doirasida investorlar mablag'lari, 1.1 milliard AQSH dollari –tjorat banklari kreditlari, 610 million AQSH dollari – korxonalarining o'z mablag'lari, 150 million AQSH dollari – xorijiy moliyaviy tashkilotlarning mablag'lari va 100 million AQSH dollari ekvivalentidagi Davlat byudjeti mablag'lari yo'naltirilishi rejalashtirilgan.[0]

1-jadval.

Muqobil energiya manbalarida elektr energiyasi ishlab chiqarish, mln. kVt. Soat, * Ma'lumotlar 2015 yildan yig'iladi[0]

Nomi	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Quyosh elektr stansiyalari tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi *	0,003	0,3	0,7	0,2	0,1	0,03	49,0	435,8
Shamol elektr stansiyalari tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi*	-	—	—	—	15,5	—	1,2	—

O'zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi energiya holatini tahlil qiladigan bo'lsak, bu sohada 2015-yildan boshlab statistik ma'lumotlar shakllantirib kelinmogda, 2015-yilda Quyosh elektr stansiyalari tomonidan ishlab chiqarilgan energiyasi 0.003 mln kVt.soat bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 49.0 mln kVt.soatni tashkil etib umumiy ishlab chiqarilgan elektr energiyasidagi ulushi 0.07% izni tashkil qilgan (2021-yilda Respublikamizda 71364,6 mln kVt.soat, 2022-yil dastlabki ma'lumotlariga ko'ra 74269,3 mln kVt.soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan) 2022-yilgi dastlabki ma'lumotlariga taqqoslasak bu ko'rsatkich 0.6%izni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichlar hozirgi zamon talablariga, qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun juda kam deb hisoblaymiz (1-jadval).




1-rasm. Yashil texnologiyalar narxlar AQSH dollari/kVt soat (nominal narxlar) (xalqaro energiya agentligi ma'lumotlariga asosida muallif ishlanmasi)[0]

Yashil energiya ishlab chiqarish sohasini Xalqaro energiya agentligi (IEA-International Energy Agency) ma'lumotlariga tayanib tahlil qiladigan bo'lsak, shamol turbinalari, quyosh panellari, elektromobil batareyalari, energiya saqlovchi batareyalarni ishlab chiqarish va o'rnatish narxlari tushish tendensiyasida ekanligini ko'rishimiz mumkin (1-rasm).


Quyosh panellari narxi 2014-yilda xar bir kVt soati uchun 150-160 AQSH dollaridan 2022-yilda 70-80 AQSH dollariga, Shamol turbinalari narxi 2014-yilda xar bir kVt soati 1240-260 AQSH dollaridan 2022-yilda 170-180 AQSH dollariga, elektromobil akkumulyatorlari 2014-yilda xar bir kVt soati 500-550 AQSH dollaridan 2022-yilda 140-150 AQSH dollariga, Energiya saqlovchi batareyalar narxi 2014-yilda xar bir kVt soati 350-360 AQSH dollaridan 2022-yilda 210-215 AQSH dollarigacha pasayganini ko'rishimiz mumkin. Bu ijobiy tendensiya keyingi yillarda ham davom etishi kutilmoqda.

Toza energiya uskunalarining narx indeksi umumiy holatda 2014-yil 230-240 million AQSH dollari bir megavatt uchun talab qilingan bo'lsa bu ko'rsatkich 2022-yilga kelib 100-110 million AQSH dollarigacha kamaydi (2-rasm). Bu dunyo mamlakatlari hukumatlari oldiga energetika sohasidagi qarorlarini qabul qilishda bu ijobiy tendensiyalarni ham hisobga olishiga majburlamoqda.



2-rasm. Toza energiya uskunalari narx indeksi Million AQSH dollari/megavatt (nominal narxlar) (xalqaro energiya agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi)[0]

Umuman dunyo davlatlari "Yashil energetika" tizimiga investitsiya kiritish jarayoni ham yil sayin jadallashib bormoqda, masalan, oxirgi uch yilda Energiya ishlab chiqarishga global yillik investitsiyalarni tahlil qiladigan bo'lsak, 2020 yilda quyosh elektr stansiyalari sohasiga 215 milliard AQSH dollariga yaqin, Shamol elektr stansiyalariga 180 milliard AQSH dollariga yaqin, ko'mirga ishlaydigan elektr stansiyalariga 60 milliard AQSH dollariga yaqin, tabiiy gazda ishlaydigan elektr stansiyalariga 40 milliard AQSH dollariga yaqin investitsiyalar kiritilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yil yakunlari bo'yicha quyosh elektr stansiyalari sohasiga 360 milliard AQSH dollaridan ortiq yoki 2020-yilga nisbatan 68% ga ko'proq, Shamol elektr stansiyalariga 215 milliard AQSH dollaridan ortiq yoki 2020-yilga nisbatan 19% ga ko'proq, ko'mirga ishlaydigan elektr stansiyalariga 40 milliard AQSH dollariga yaqin yoki 2020-yilga nisbatan 34% ga kam investitsiya qilingan bo'lsa, tabiiy gazda ishlaydigan elektr stansiyalariga 50 milliard AQSH dollariga yaqin yoki 2020-yilga nisbatan 25% ga ko'p investitsiyalar kiritilishi kutilmoqda. Yuqoridagi tahlil natijalaridan xulosa qilish mumkinki yashil energetika sohasiga ko'proq e'tibor berilmoqda va bu ko'rsatkichlar yil sayin jadallashmoqda (3-rasm).



3-rasm. Energiya ishlab chiqarishga global yillik investitsiyalar, milliard AQSH dollari (xalqaro energiya agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi)[0]

O'zbekiston Respublikasi ham oxirgi yillarda yirik shamol va quyosh elektr stansiyalarini qurish jarayonlarini jadallashtirmoqda, aholi tomonidan oshiqcha ishlab chiqarilgan "yashil" elektr energiyasini "Yashil" tariflar asosida sotib olish tizimi yo'lga qo'yildi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini sotib olishda imtiyozlar subsidiyalar berilmoqda. Bu chora tadbirlar natijasida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish darajasi oshmoqda lekin energetika sohasini bozor tamoyillari asosida rivojlantirish, narx shakllanishini liberallashtirish darajasi bizning nazarimizda hali yetarli emas. Hozirda aholi xonadonlariga bir kVt elektr energiyasi 295 so'm yoki 0.024 AQSH dollari (2.4 sent) atrofida bo'lsa uning asl tannarxi 970 so'm atrofida ekanligi Energetika vazirligi tomonidan qayd etilgan[0]. Bir kubometr tabiiy gazning tannarxi esa 1890 so'mni tashkil etib, aholiga yetkazib berilayotgan tabiiy gaz narxi 380 so'mni tashkil etmoqda. Aholiga elektr energiyasi va tabiiy gazni past tariflarda yetkazib berish uchun Davlat byudjetidan yiliga 14 trillion so'mdan ortiq yoki 1,15 milliard AQSH dollaridan ko'proq subsidiya ajratilmoqda.

Tabiiy haqli savol tug'iladi xalq uchun energetika resurslari Davlat byudjetidan moliyalashtirilsa buning nimasi yomon?! Masalaning asl mantig'i shundaki bizning nazarimizda bu subsidiyalar maqsadli-mi?, adolatlami?, ratsionalmi?... degan haqli savollar o'rtaga chiqadi. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 68-moddasida "Yer, yerosti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir..."[0], asosiy qomusimizda shunday ekan bu tartib-tamoyilni yuqoridagi savollar asosida mantiqiy tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekiston aholisining 100% ga yaqini to'liq elektr energiyasi bilan ta'minlangan, tabiiy gaz bilan ta'minlanish darajasi esa 50% atrofida, «O'zbekistonda aholi jon boshiga tabiiy gaz iste'moli rivojlangan davlatlar va qo'shni mamlakatlarga qaraganda 3 baravar ko'proq. Taqqoslash uchun, xorij davlatlarida bir kishi uchun 90 kub metr gaz to'g'ri kelsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 400 kub metrdan oshgan [0]. Bitta xonadon yil davomida 5000 kub metr gaz ishlatadi. Tahlillarni davom ettiradigan bo'lsak, aholining 50 %ga yaqini tabiiy gaz va elektr energiyasi uchun davlat byudjetidan subsidiya olmoqda, qolgan 50% izi esa faqat elektr energiyasi uchun olmoqda. Endi elektr energiya iste'moliga e'tibor beradigan bo'lsak (2-jadval), aholining sal kam 75 % izi 26% ga yaqin elektr energiyasini iste'mol qilsa 25% dan ortiq aholi 74% dan ortiqroq elektr energiyasini iste'mol qiladi. Bu irratsional ko'rsatkichni hukumat tabaqalashtirilgan tariflar bilan bartaraf etmoqchi. Lekin bizning nazarimizda muammoning yechimi bu emas, chunki tabiiy gaz bilan ta'minlanmagan xonadonlar tabiiyki elektr energiyasini ko'proq iste'mol qiladi albatta. Buning yagona adolatlil yechimi, bizning fikrimizcha rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, bu bozorni erkinlashtirish, bozor tamoyillariga o'tkazish va aholining kam ta'minlangan qismini maqsadli va manzilli energetika subsidiyalari bilan ta'minlash. Masalan Germaniyada energiya bilan ta'minlash to'liq bozor tamoyillari asosida yo'lga qo'yilgan, kim qancha energiya iste'mol qilsa shunga mos haqqini to'laydi. Bu tizim aholidan energiya iste'molida tejamkor texnologiyalardan va muqobil energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantiradi. Aholining kam ta'minlangan qismiga esa manzilli yordam pullari evaziga ijtimoiy himoya qilinadi.

2-jadval.

O'zbekiston aholisining 2023-yil misolida o'rtacha elektr energiyasi iste'moli

No	Iste'mol hajmi	Abonentlar (ming dona)	ulushi, %	Iste'mol (mln kVt-s)	Ulushi, %
1	200 kVt-soatgacha	5684	74,91%	5163	25,72%
2	201-300 kVt-soat	737	9,71%	2258	11,25%
3	301-500 kVt-soat	628	8,28%	2932	14,61%
4	501-1000 kVt-soat	393	5,18%	3234	16,11%
5	1001-2000 kVt-soat	82	1,08%	2529	12,60%
6	2001-5000 kVt-soat	54	0,71%	1686	8,40%
7	5001-10000 kVt-soat	6	0,08%	778	3,88%
8	10000 kVt-soatdan yuqori	4	0,05%	1491	7,43%
	Jami:	7588	1	20071	1

Respublikamizda energetika sohasini bozor tamoyillarini joriy qilish uchun barcha tashkiliy infratuzilma yetarli deb o'ylaymiz, chunki deyarli barcha xonadonlarga elektron hisoblagichlar o'rnatilgan, tabiiy boyliklar xalq Mulki ekanligi konstitutsiyamizda mustahkamlab qo'yilgan, faqat islohotlarni qilish uchun siyosiy iroda kerak.

Iqtisodiyot nazariyasidan ma'lumki biron bir mahsulot yoki xizmatning narxi arzon bo'lsa uni iqtisod qilishga va hisobini yuritishga e'tibor shuncha past bo'ladi. Aholiga yetkazib berilayotgan elektr energiyasi va tabiiy gazda ham shunday holat ko'zga tashlanmoqda. Tabiiy boyliklardan foydalanish O'zbekiston fuqarolarining konstitutsion huquqi ekan buni ratsional, adolatli va manzilli yetkazish mumkin. Buning uchun hozirda ajratilayotgan 1,15 milliard AQSH dollarida subsidiyani aholi soni (36 mln) ga bo'lsak 32 AQSH dollari atrofida ya'ni Davlat byudjetidan yiliga aholining har biriga 32 AQSH dollari ekvivalentidagi subsidiyalar ajratilmoqda. lekin bu ajratilayotgan subsidiyalarning asosiy qismi aksariyat daromadi yuqori oilalarga energetika subsidiyalari shaklida ketmoqda (2-jadval). Endi rasmiy statistika ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak, 2022-yilda O'zbekiston aholisining 14.1 %i (36 mln*0.141=5 mln) kambag'allik darasida yashamoqda endi shu 5 mln aholiga belgilangan energiya subsidiyalarini moddiy yordam ko'rinishida beradigan bo'lsa 5 mln*32 AQSH dollari=160 mln (0.16 milliard) AQSH dollari, qolgan 1.15 milliard-0.16 milliard=0.99 milliard AQSH dollari davlat byudjeti ixtiyorida qoladi. Bundan tashqari energiya resurslari narxining bozor tamoyillari asosida faoliyat yuritishi natijasida aholida ushbu resurslardan tejab foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalardan foydalanish darajasini rag'batlantiradi. Bundan tashqari O'zbekiston energetika bozoriga to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari va investorlarining kirishini keskin oshiradi, yashil energetikani muhimligi oshadi va aholiga yetkazilayotgan energiya resurslarining uzilishsiz doimiy va me'yorlarda bo'lishini ta'minlaydi. Chunki narxning bozor talablari asosida shakllanishi raqobatni oshiradi, raqobatning oshishi esa sifatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. Amalga oshirilayotgan tadqiqotlar va tahlillar asosida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida energetika bo'yicha energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiyaga o'tish jarayonini tezlatish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish kerak deb hisoblaymiz:

Birinchidan, global miqyosda yashil iqtisodiyotga o'tish, ekologik innovatsiyalardan foydalanish jarayonini rag'batlantirish zamon talabi ekanligini anglab yetish, yashil iqtisodiyotning tezroq rivojlanishiga turtki beradi.

Ikkinchidan, yashil iqtisodiyotga o'tish maqsadlarini qo'llab-quvvatlovchi maqsadli va manzilli yashil moliya instrumentlarini joriy qilish orqali energetika tariflarini bozor tamoyillari asosida shakllanishiga yo'l ochib berish zarur. Bu sohaning investitsiya jozibadorligini, raqobatni va xizmatlar sifatining oshishiga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishiga erishish mumkin.

Uchinchidan, energetika sohasining bozor mexanizmlari asosida faoliyat yuritishi Davlat byudjetining energetika subsidiyalari qismi keskin kamayadi, davlat byudjeti mablag'lari iqtisod qilinishiga erishiladi.

To'rtinchidan, energetika bozorining liberallashtirishi natijasida energiya tejamkor texnologiyalar va qayta tiklanuvchi texnologiyalardan foydalanish darajasi ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2.12.2022-yildagi PQ-436 "2030-yilgacha "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar, samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/6303230>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 16.02.2023 PQ-57-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6385716>
3. Artur Pigu Industrial Fluctuations, Macmillan Press Ltd.; 2nd Edition (January 1, 1929)
4. <https://www.iea.org/reports/world-energy-outlook>
5. <https://president.uz/uz/lists/view/6846>
6. Zokirov Sh. Возобновляемая энергия для устойчивого развития. // журнал Экономическое обозрение. 2020, №12(240). – С44-51.
7. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/09/22/subsidy/>
8. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi
9. <https://kun.uz/uz/news>
10. <https://stat.uz/uz/>

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ
МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

**№3/2 (112)
2024 й., март**

Ўзбекча матн муҳаррири:
Русча матн муҳаррири:
Инглизча матн муҳаррири:
Мусахҳиҳ:
Техник муҳаррир:

Рўзметов Дилшод
Ҳасанов Шодлик
Ҳамраев Нурбек, Ламерс Жон
Ўрозбоев Абдулла
Шомуродов Журъат

“Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси” Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги
Хоразм вилоят бошқармасида рўйхатдан ўтган. Гувоҳнома № 13-023

Теришга берилди: 05.03.2024
Босишга рухсат этилди: 15.03.2024.
Қоғоз бичими: 60x84 1/8. Адади 70.
Ҳажми 10,0 б.т. Буюртма: № 3-Т

Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими
220900, Хива, Марказ-1
Тел/факс: (0 362) 226-20-28
E-mail: mamun-axborotnoma@academy.uz
xma_axborotnomasi@mail.ru



(+998) 97-458-28-18